



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI


ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**

## BOBUR G‘AZALIGA BOG‘LANGAN MUXAMMASLAR MUKHAMMĀS MOTIFS CONNECTED TO BABUR’S GHAZALS

**Sitora Shomurodova**

Xalqaro Nordik universiteti v.b. dotsenti  
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Kodirova Dilnura Ilyos qizi**

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi

E-mail: [dilnurakodirova28@gmail.com](mailto:dilnurakodirova28@gmail.com)

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026/NXIJ3495](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026/NXIJ3495)

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola shoira Sitorabonu Hoshim qizining Zahiriddin Muhammad Boburning g‘azaliga bog‘lagan muxammasining tahliliga bag‘ishlandi. Shoiraning muxammas an‘anasini davom ettirgani, Bobur g‘azaliga munosib tazmin yozganligi, badiiyati xususida fikr yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *muxammas, ijodkor, Bobur, she‘riyat, ishq, oshiq, yor, mavzu, ko‘ngil, g‘am.*

**Annotation.** *This article is dedicated to the analysis of a mukhammas written by the poetess Sitorabonu Hoshim qizi, based on a ghazal by Zahiriddin Muhammad Babur. The author discusses how the poetess continues the traditions of the mukhammas genre and examines the artistic merits of her worthy tazmin (poetic response) to Babur’s work.*

**Keywords:** *mukhammas, creator, Babur, poetry, love, lover, beloved, theme, heart, sorrow.*

Sharq mumtoz adabiyoti nafaqat o‘z davriga balki, o‘zidan keyingi davr, ya’ni bugungi kunga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Biz bu ta’sirni tatabbu’lar, muxammaslar misolida ko‘rishimiz mumkin. Bilamizki, lirik turdagi janrlar turlicha tasnif qilinadi. Ularning tasnif qilinishi esa quyidagicha:

1. Mazmun jihatdan lirik janrlar.
2. Shakl jihatdan lirik janrlar.
3. Misra va band tuzilishiga ko‘ra tasnif qilinadigan lirik janrlar.

Bizning mavzumiz bo‘lgan muxammas esa misra va bandning tuzilishiga ko‘ra tasniflanuvchi janrga turiga kiradi.

Muxammas so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “besh burchakli”, “beshlik, beshtalik” degan ma’nolarni bildiradi. [Berdak, 2010: 266]. Besh misradan tuzilgan, o‘ziga xos qofiyalanishga ega bir necha banddan iborat she‘riy janrlardan biri hisolanadi. Qofiyalanishi: a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, d-d-d-d-a kabi shaklda bo‘ladi. Muxammas mumtoz adabiyotimizning go‘zal janrlaridan biri hisoblanadi va uning ikki turi bor tab‘i xud (mustaqil) va tazmin (taxmis). Tab‘i xudda barcha misralar bir muallifniki, tazmindagi esa ijodkor birorta ustoz,

zamondosh shoir yoxud o'z g'azallari baytlarining har birini beshlik bandlarga aylantiradi [Hojiahmedov, 2008:74, 75].

Muxammasning ilk namunalari Hofiz Xorazmiy va Gadoiy devonlarida uchraydi. Navoiy davriga kelib esa muxammasning tazmin namunalari yaratilgandir. XVII asrda muxammaslar tez fursatda rivoj topgan va XX asrga kelib muxammas bog'lash an'anaga aylangan. Muxammaslar faqat o'tgan asrlarda yashab, ijod qilgan shoirlar tomonidan yaratilgan desak, to'g'ri bo'lmaydi. Chunki bugungi kunda ham muxammas bog'lash an'anasini davom ettirayotgan shoirlar talaygina.

Shunday ijodkorlardan biri mahoratli shoira Sitorabonu Hoshim qizidir. Sitorabonu Hoshim qizi ijodiga nazar soladigan bo'lsak, uning she'rlaridan muhabbat, sadoqat, sog'inch va mehr mavzulari birday ufurib turadi.

Sitorabonu Hoshim qizi tazmin muxammas bog'lagan g'azal Boburning “Mushkuldur” radifli g'azalidir. Shoiraning Boburning ushbu besh baytli g'azaliga yozgan tazmin muxammasi ham mazmunan, ham usluban ushbu g'azalga munosibdir. Muxammasning dastlabki bandi quyidagicha:

*Nigoron kutganingdan kelmasa axbor, mushkuldir,  
Diling sirrin yashirsang, ko'z etar oshkor, mushkuldir,  
Seningsiz g'am, sen-la ham yetar ozor, mushkuldir,  
Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur,  
Sening birla chiqishmoqlik dag'i bisyor mushkuldur [Hoshim qizi,  
2025:19].*

Ushbu beshlikning mazmuni ijodkorning zoriqib-toliqib kutayotga go'zal yoridan xabar kelmayapti va dilidagi bu sirlarini hammadan yashirmoqchi, ammo ko'zlar bildirib qo'ymoqda. Shoir yori bo'lmasa g'amga botadi, biroq yori bilan birga bo'lsa ham ozor tortadi. Yorning yo'qligiga sabr qilish ham qiyin, lekin yori yonida ekanligida u bilan chiqishish ham anchayin qiyinroq ekanligini anglatadi.

*Ko'zim bir sen deya giryon, ko'ngul bir sen sabab telba,  
Aziz ismingni qalbimga tumordek men qadab telba,  
Sen ey, behad mukammalsan, darig', men beadab telba,  
Mijozing noziku sen tund, men bir beadab telba,  
Sanga holimni qilmoq, ey pari, izhor mushkuldir.*

Ikkinchi baytdagi tazminning ma'nosi, shoirning ko'zi faqat o'zining parisi ya'ni yorini izlaydi, ko'ngli uning ishqida telba bo'lib qolgan, qalbida yorning ismi shu qadar o'mashib olganki, go'yoki oshiq uchun bu yor hammadan mukammal, o'zi esa odobsiz. Yana oshiq yoriga murojaat qilayaptiki, ey pari, senga holimdan xabar beraman desam, sen menga iliq munosabatda emassan. Shuning uchun ham unga holini bayon aylash ham shoir uchun juda mushkul.

Keyingi bayt:

*Necha sendan kechay derman, vale kechgayman ahdimdin,  
Ko'rib holim so'rarsanmi: asar qolmabdi shahdimdin,  
Seni deb voz kechib keldim g'urur nomli u taxtimdin,*

*Ne osig' nola-u faryod xobolud baxtimdin,  
Bu unlar birla chun qilmoq ani bedor mushkuldir.*

Shoir yordan kechmoqchi bo'ldi, ammo “kechaman” degan so'zdan kechdi, uning avvalgi shahdidan asar ham qolmagan, yori holini so'zarmikan. Yorni deb g'ururidan ham kechdi. Shunda nola-yu faryod bilan uyqusirayotgan baxtini bedor qilish qiyin ekanligini aytmoqda.

*Bugun sensiz qarorim yo'q, gahe hush, gohi behushman,  
Yil-u oylar o'tar, ammo biror bor yodinga tushmam,  
Xayolim sen, hayotim sen va lekin sen uchun tushman,  
Manga osondurur bo'lsa, agar yuz ming tuman dushman,  
Vale bo'lmoq jahonda, ey ko'ngul, beyor mushkuldir.*

Oshiq shu qadar yoriga bog'lanib qoldiki, behush bo'lsa ham, hushyor bo'lsa ham yorini o'ylayveradi. Ammo yillar-oylar o'tsa ham yori uni yodiga keltirmaydi. Yor oshiqning, allaqachon, hayotiga, xayoliga aylanib bo'ldi, lekin yori uchun oshiq unday emas. Keyingi misralarda oshiq uchun dushmanlarni yengish mushkul emas, u hamma dushmanlarga qarshi chiqa oladi, biroq yorsiz bo'lish oshiq uchun qiyindir.

*Seni derman hayotimda, chu isming ko'nglima jodir,  
Bu ushshoq elida yo'qdir seningdek rahmsiz jobir,  
Yana kelgaymi olamga Sitora singari sobir,  
Visolinkim tilarsen, nozini xush tortqil, Bobur,  
Ki, olam bog'ida topmoq guli bexor mushkuldir!*

Oshiq qancha yil yashasa ham bo'ldi faqat o'sha yorini deydi, yorning ismi oshiqning ko'nglidan endi o'chmaydi. Yana yorga shikoyat ham qilinyapti bu dunyoda senday jabr qiluvchi odam yo'q deya. Bu yog'i an'ana muvofiq muxammas yozgan ijodkor o'z ismini kiritishi. Yana dunyoga Sitora singari sabrli odam kelgaymi? deya Sitora Hoshim qizi o'z muxammasini yakunlayapti. Bobur esa agar visolini xolasang, nozini ham qabul qilgin Bobur, chunki olamning bog'ida tikansiz gulni topa olmaysan deb o'ziga o'zi tasalli bermoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Boburning g'azaliga munosib tarzda yozilgan ushbu muxammas Sitorabonu Hoshim qizining ijodining o'ziga xosligini namoyon etgan desak adashmaymiz. Bu g'azalga Sitorabonu Hoshim qizi muxammas bog'lagandan keyin asar mazmunan to'lishdi, to'rt asrdan keyin go'yoki g'azal yanada serjilo bo'ldi, mening nazdimda. Bu muxammas orqali ham shoiraning o'z individualligi yorqin satrlar bilan aks etgan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2010.
2. Hojjahmedov A. Mumtoz badiiyat lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
3. Hoshim qizi Sitorabonu. Hur. – Toshkent: Yangi kitob, 2025.
4. O'zbek tiling izohli lug'ati (I, II, III, IV, V, VI jildli). – Toshkent, 2023.

5. Mahmadiyor Asadov. 2026. “A BRIEF OVERVIEW OF THE HISTORY OF UZBEK TRANSLATION STUDIES”. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies* 1 (01):28-30.
6. Mavlyanov, S. (2023). O ‘zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasnifi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
7. Muhammadiyeva, D. TARJIMA MATNLARDA FRAZEMALARNING PROYEKSIYASI PROJECTION OF PHRASES IN TRANSLATED TEXTS. O ‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI.
8. Shamsieva Manzura Bababekovna. (2025). COGNITOTYPES OF LANDSCAPES IN THE EPIC “LISON UT-TAYR” BY ALISHER NAVOI. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 12(02). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/2580>
9. Sirojiddinov, S., & Normurodova, N. (2019). Pragmatics and Cognition: Intention and Conceptualization in Discourse. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 2888-2893.
10. Vafo, Muhayyo - Orazova, Iqbol. “ALİ ŞİR NEVÂÎ’NİN “LEYLİ VE MECNUN” MESNEVISİNDE DİNÎ TASAVVURLARIN ‘CAN’ MERKEZLİ DEYİMLERİN OLUŞUMUNA ETKİSİ”. *Türk Kültürü ve Hacı Bektaş Veli Araştırma Dergisi*. 115 (September 1, 2025): 601-614. <https://doi.org/10.60163/tkhcbva.1614109>.
11. Turdievna, K. Z., & Tursunaliyeva, A. M. (2023). Problems of Understanding and Translating Homonyms in the Artificial Intelligence System. *INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS*, 2(5), 63-67.